

BOLALARDA HAYOTIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MOHIYATI



Matyaquba Mashhura Axmadillayevna

. Andijon viloyati Andijon tumani 54-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya. Ta'limni tarbiyadan ajratib bo'lmasligi isbot talab qilmas haqiqatdir. Shubhasiz, birinchi galda yoshlar ongiga u yoki bu turdag'i nazariy yoki amaliy bilimlarni singdirishdan avval, uning ushbu bilim sohasiga nisbatan qiziqishini, qobiliyati va intilishini shakllantirish, izga tushirish, bir so'z bilan aytganda, tarbiyalash lozimdir. Ikkinchidan, ta'lim berishda har bir ta'lim ob'ektining maqsad muddaolari, mafaatlari, harakat va intilishlari uyg'unlashmog'i shartdir. Uchinchidan, ta'lim jarayoni uzlusizligida har bir insonning shaxs sifatidagi qobiliyati, fikrmulohazalari, xulosalari shakllantiriladi.

Kalit so'zlar: hayotiy ko'nikma, tafakkur madaniyati, falsafiy mushohada, ta'lim ob'ekti, psixika, ruhiy rivojlanish

KIRISH

Hozirgi tahlikali zamonda yosh avlod tarbiyasida hushyorlik va ogohlikni yanada oshirish zarurligini uqtirib, Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlab o'tdilarki, bu masalada “....biz asrlar maboynda shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz. Farzandlarimiz, ayniqsa, qiz bolalarning zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini, xorijiy tillarni egallashlari, har tomonlama sog'lom va barkamol bo'lib, hayotdan munosib o'rin topishlari uchun barcha kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz”

Ta'lim-tarbiyaviy jarayonning o'ziga xosligi shundaki, u har bir inson uchun jamiyat a'zosi sifatida o'z o'rni va mavqeiga ega bo'lish, ijtimoiy faol turmush tarzini tanlash imkoniyatlarini beradi. Shu bois yoshlarni ijtimoiy foydali



turmush sari yo'llash, o'z iste'dodi va qobiliyatiga yetarlicha baho berishga o'rgatish, ana shunday mezonlar asosida ularga ta'limtarbiya berish ma'naviy-ma'rifiy ishlarimizning muhim bug'inidir. Ta'lim samaradorligiga erishmoqni niyat qilib ushbu sohadagi amalga oshirilayotgan islohatlarning ishtirokchisiga aylanayotgan ekanmiz, unutmaslik kerakki, biz tarbiya qilayotga yoshlar avvalombor davr ruhini, millat va xalq uyg'oqligini, uning orzu-intilishlarini, maqsad va manfaatlarini ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning har bir bosqichida bir biri bilan bog'lab turuvchi bunyodkor kuchdir. Yoshlarimiz milliy g'oyalarimizni, milliy qadiriyatlarimiz va ularning manbalarini chuqr o'rganib, o'z bilimi, tafakkuri va qobiliyatiga tayanib uni ijodiy rivojlantiradigan hamda kelgusi avlodlarga yetkazib beradigan kuchdir. Bu kuchni harakatga keltirmoq, uni aniq maqsadlar sari yo'naltirmoq va eng muhimi, unga nisbatan ishonch hissini uyg'otmoq nihoyatda katta mas'uliyat va fidoyilikni talab qiladi.

Tafakkur taraqqiyoti inson dunyoqarashi sarhadlarining kengayib borishi barobarida uning aqliy va amaliy imkoniyatlari borliq mohiyatini tobora chuqurroq qamrab oladi. Inson tafakkur tarzini qaror toptirish, tafakkur madaniyatini shakllantirish umumbashariy sivilizatsiyaning mazmun mohiyatini belgilab beruvchi asosiy mezon hisoblanadi. Aynan tafakkur madaniyati dunyonи anglash, uning mohiyati to'grisida mantiqiy mushohada yuritish va shu orqali yaxlit tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Shu ma'noda tashqi olam, bizni o'rarturan borliq to'g'risida tushuncha va xulosalarimiz aqliy qobiliyatimiz mahsuli sifatida tizimli ta'sirning, ya'ni ta'lim jarayonining uzluksizligi va maqsadli yo'naltirilganligi natijasi deb qabul qilinishi mumkin.

Har bir davrda ijtimoiy taraqqiyot va ma'naviy yuksalish shart-sharoitlari va zamin poydevorini yaratish doimiy e'tiborda bo'lib kelgan. Taraqqiyot mezoni esa inson tafakkuri madaniyati taraqqiyoti bilan o'lchanadi. Inson ongida sog'lom fikr, tushuncha va tasavvurlar tizimini shakllantirish, uning ma'naviy-axloqiy qiyofasini, erkin dunyoqarashini qaror toptirish ta'lim tarbiyaviy asosga qurilib, insonning ijtimoiy muhitga moslashuvi, malaka va ko'nikmalar orttirishiga



qaratilgan faoliyat sifatida ta'lim oluvchiga nazariy va amaliy bilimlarni berish sari yo'naltiriladi. Va nihoyat, to'rtinchidan, ta'lim jarayonida singdirilgan nazariy va amaliy bilimlar, egallangan kasb-hunarning maqsad va mas'uliyati ta'lim ob'ektining ijtimoiy faolligini oshirib, barcha imkoniyatlarini ijtimoiy taraqqiyot sari yo'naltirishga, zamonamizning dolzarb muammolarini hal etishga safarbar etishga yo'llaydi. Ko'rinish turibdiki, har qanday sharoitda ta'lim samaradorligi avvalambor uning sog'lom tarbiyaviy zaminda qanchalik mustahkam ildiz otganligi bilan belgilanadi.

Ta'lim-tarbiyaviy jarayonning uzlusizligini ta'minlash har qanday jamiyat, ijtimoiy tizim uchun o'z istiqbolining mustahkam poydevorini barpo etish demakdir. Bu borada mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar ayni shu maqsad sari yo'naltirilgan va davlat siyosati darajasida e'tirof etilayotgan ezgu maqsadlarimiz ifodasidir. Shubhasiz, bizning ta'limtarbiya sohasiga qanchalik jiddiy e'tibor berayotganligimiz avvalo strategik ahamiyatga ega bo'lgan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarida aniq-ravshan o'z-ifodasini topgan. Mazkur huquqiy-me'yoriy xujjalarda belgilangan vazifalar aniq maqsad sari yo'naltirilgan bo'lib, barkamol avlod tarbiyasida eng zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash, ilg'or pedagogik salohiyatini safarbar etishini taqozo etadi.

Ta'lim-tarbiyaviy jarayonning barkamol avlod imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda qanchalik ahamiyatli ekanligini ta'kidlab, Islom Karimov uqtirib o'tgan ediki, "Barchamiz bugun chuqur anglab oldik-faqatgina zamonaviy asosda ta'lim-tarbiya olgan, jahoning manaman degan mamlakatlaridagi tengdoshlari bilan bellasha oladigan jismoniy va ma'naviy jihatdan barkamol yoshlari biz boshlagan ishlarni munosib davom ettirish va yangi bosqichga ko'tarishga qodir



bo'ladi". Ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim sifatini oshirish, yoshlarimizni zamonaviy bilimlarni puxta egallash sari yo'llashda ijtimoiy-gumanitar fanlarning roli benihoyadir. Ushbu yo'nalishdagi fanlar yoshlarning bilim saviyasini oshirish bilan birga har bir avlod vakilida yetuk mutaxassis, zamonaviy inson qiyofasini shakllantirish sari yo'naltirilgandir.

Darhaqiqat, ijtimoiy fanlarni o'qitishda ularning funksional vazifalaridan kelib chiqadigan o'ziga xoslikni alohida ta'kidlab o'tish kerak. Zero, ijtimoiy fanlar yoshlarda tafakkur madaniyatini shakllantirish barobarida tashqi voqelikda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, voqeahodisalarga o'z munosabatlarini bildirish, mustaqil qarorlar qabul qilish va xulosalar chiqarish sari yo'llaydi. Masalaning muhimligi shundaki, yoshlarimizning voqelik haqidagi umumiyligi dunyoqarashini shakllantirishda birinchi galda shu voqelik mazmun-mohiyatini to'g'ri izohlab, sodir bo'layotgan voqealar, ularning yo'nalishi, harakatlantiruvchi kuchlari va maqsadmuddaolari haqida aniq ma'lumotlar asosida yoshlarimiz fikrini oydinlashtirishi lozim. Ana shunday mas'uliyatli vazifa ko'proq dunyoqarashlik maqomiga ega bo'lgan falsafiy fanlar zimmasiga tushadi. Shuning uchun ta'lim tizimining yuqori bosqichlarida ushbu fanlarni o'qitishda fan dasturlari, o'quv adabiyotlari va ta'lim texnologiyalarida o'ziga xoslikka e'tibor qaratib, hech bir ayniylikka, o'xhashlikka va takrorlanishlarga yo'l qo'yilmasligi lozim. Ijtimoiy fanlarni o'qitishda biz avvalo fanning insonparvarlik mohiyatiga jiddiy e'tibor qaratmog'imiz lozim. Shu bois yoshlarimiz ongi va qalbiga singdirayotgan g'oyalarga insonparvarlik, vatanparvarlik, bag'rikenglik, fidoyilik, mehnatsevarlik fazilatlari ustuvorligini ta'minlamog'imiz zarur. Yoshlarimizning ijtimoiy fanlarga doir bilimlarini yanada chuqurlashtirish vazifalaridan kelib chiqadigan bo'lsak, shu narsa albatta e'tiborimiz markazida bo'lishi kerakki, avvalo ularning aqliy yetukligi, bilim darajasi va fikrlash saviyasini o'stirish maqsadida aqliy tarbiyani; ma'naviyaxloqiy, insoniy fazilatlarini shakllantirish bilan bog'liq-axloqiy tarbiyani; huquqiy, siyosiy bilim berish orqali siyosiy hamda huquqiy onglilikni o'stirish, huquqiy madaniyatini oshirishga yo'naltirilgan-huquqiy va siyosiy tarbiyani; estetik ongi va ijodkorlik mahoratini



shakllantirishga yo'naltirilgan- estetik tarbiyani amalga oshirish ta'lim-tarbiyaviy ishlarimizning bosh yo'nalishini tashkil qilishi kerak.

XULOSA

Ta'lim tarbiyaviy ishlarimizning pirovard maqsadini barkamol avlod, komil inson shaxsi bilan bog'lar ekanmiz, so'zsiz, bu o'rinda ajdodlarimizdan meros bo'lib kelayotgan ilmiyma'rifiy, ma'naviy axloqiy qadryatlarimizni ta'lim-tarbiyaviy faoliyatimizning zamin- poydevori deb bilmog'imiz lozim. Shunday ekan, anashu boy meros sari keng yo'l ochish, beba ho ma'naviy ne'matlardan yoshlarimizning foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish hamda uni ijodiy rivojlantirish qobiliyatini tarbiyalash asosiy vazifamiz bo'lmog'i lozim. Milliy-ma'naviy merosimizning qanchalik ahamiyatli ekanligini yoshlar ongiga singdirish orqali g'oyaviy-mafkuraviy tarbiya izchilligini taminlar ekanmiz, bu bilan mafkuraviy immunitetning mustahkam poydevorini barpo etishga erishamiz. Bunday natija masalaning ikki muhim jihatini taqozo etadi:

-birinchidan, yoshlarimizni o'tmish madaniy merosimizga hurmat va sadoqat ruhida tarbiyalash orqali bunday beba ho boylikdan ijodiy foydalanish imkoniyatlari ulardagi ichki ehtiyojlar, hohish-iroda bilan uygunlashib ketmog'i lozim. Shundagina yoshlarimiz o'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanishini chuqur his etgan holda kelajak mas'uliyatini aniq- ravshan idrok qila oladilar;

- ikkinchidan, yoshlarimizning o'tmish ma'naviy merosimizga oqilona munosabatini tarbiyalash ustida so'z borar ekan, albatta, ushbu maqsaddagi tarbiyani amalga oshirish imkoniyatlarini yuzaga chiqarish uchun yetarlicha shart-sharoit hamda sog'lom manaviy-axloqiy muhit yaratilganligiga ishonch hosil bo'lishi kerak. Mamlakatimiz taraqqiyotining istiqbol rejali bu borada bizning oldimizga aniq talablarni qo'ymoqda. "Yosh avlod tarbiyasi mamlakat rivojlanishining real talablariga mos yondashuvni, o'ziga xos anqlikni taqozo etmoqda. Bu anqlikda bizning millat va xalq sifatidagi zamonaviy o'zligimizni anglash darajamiz va zamonaviy taraqqiyot talablari taqozo etadigan milliy tafakkurimiz ifodalanishi kerak"

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish-eng oliy saodatdir. T-“O'zbekiston”. 2015. 255 -bet.
2. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligiing 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza// “Xalq so'zi”. 8 dekabr 2016 yil.
3. M.Munavvarova. Milliy g'oyaning ma'naviy ildizlari. “T.: Ma'naviyat” 2011, 25 bet.
4. Internet materiallari

